

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PSIXOLOGIYA
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AXMADOV NAZIRJON RAHMAT O‘G‘LI

**DEZADAPTATSIYALASHGAN O‘SMIRLARNI REABILITATSIYA
QILISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
psychological Sciences**

Axmadov Nazirjon Rahmat o'g'li

Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari 3

Ахмадов Назиржон Рахмат угли

Социально-психологические механизмы реабилитации дезадаптационных подростков. 25

Akhmadov Nazirjon Rahmat ugli

Socio-psychological mechanisms of rehabilitation of adolescents with maladjustment 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PSIXOLOGIYA
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AXMADOV NAZIRJON RAHMAT O‘G‘LI

**DEZADAPTATSIYALASHGAN O‘SMIRLARNI REABILITATSIYA
QILISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/P408 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xuseynova Abira Amanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: Jabborov Xazrat Xuseynovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Do'sanov Elbek Absamatovich
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Phd.03/30.12.2019.Psi.72.06 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 20 iyul kuni soat 05⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14; faks: (+0365) 221-27-57; e-mail: buxdu.rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (A/1621 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 6 » iyul da tarqatildi.
(2024-yil « 6 » iyul dagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi.)



A.M. Nazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.Sh. Rustamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

R.A. Abdurasulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda inson hayotida yuzaga keladigan muammolarni yuzaga kelish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur psixologik chora-tadbirlarni belgilash oqilona yechim topish, natijalarni to'g'ri baholash va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarining ijtimoiylashuv jarayonlarida shaxslararo munosabatlari, turli xil vaziyatlarda moslashganlik, ijtimoiylashuvda qadriyatlarining o'rni, shaxsning hayotida muhim bo'lgan xulq-atvorini o'zgartirish masalalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining (World Health Organization) taqdim etgan bayonotida ta'kidlanishicha, «Dunyo bo'yicha har yili 11-16 yoshdagi ya'ni o'smirlar orasida 200 mingga yaqin qotillik va talonchilik jinoyati sodir etilishi va ushbu jinoyatlar sabablarini aniqlash barcha mutaxassislar tomonidan dolzarb muammo sifatida o'rganilmoqda». Butunjahon Sog'liqni saqlash assambleyasi tomonidan «...psixik salomatliksiz salomatlik mavjud bo'lmaydi» tamoyiliga asoslangan harakatlar strategiyasida shaxsdagi dezadaptatsiya holatlarini tadqiq etish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Jahon miqyosda dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni jamiyatga moslasha olmasligini ijtimoiy-psixologik sabablarini aniqlash va uni baholash o'ta ilmiy ahamiyat kasb etib, psixologik bilimlar tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, dezadaptatsiya holatlarini bartaraf etishga qaratilgan yangi psixologik xizmat dasturlarini joriy etish, jamiyat hayotida yoshlar faolligini oshirish va ularning kasbiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilg'or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Amerika psixologlari assotsiatsiyasi (APA) ning ilmiy-amaliy konferensiyasida dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni reabilitatsiya qilish mavzusida diqqatga sazovor ma'ruza taqdim etilgan. M.J.Sigalning fikricha, iqtisodiy rivojlanishi sust bo'lgan va ijtimoiy islohotlar keng qamrovli kuchga ega bo'lmagan jamiyatda, yoshlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar ko'p sodir bo'ladi. Chunki, bunday jamiyatlarda qonuniylik va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik o'rtasidagi chegaralar juda kichikdir.

Respublikamizda so'ngi yillarda izchillik bilan amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub markazida shaxs va uning har tomonlama taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar ko'rindiki, bu jarayonlarda turli xildagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har bir shaxs va uning ijtimoiy muhit bilan bog'liq o'ziga xos ijtimoiy-psixologik imkoniyatlariga yetarlicha baho bermay turib shaxsning taraqqiyotiga hozirgi zamon talablariga mos tarbiyaviy ta'sir etish juda mushkul masala hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida... «Bugungi kunda mahalladagi, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning taqdiri bilan kim qiziqayapti? Bolalar kimlar bilan hamsuhbat bo'layotgani, o'qishga qachon borib, qachon kelayotganini kim nazorat qilayapti? Yoshlar, xususan, o'smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo'layapti? Ba'zi yoshlarimiz uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo'lib borayotgani, ularda befarqlik,

mas'uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko'rishga intilish kabi illatlar paydo bo'layotgani – achchiq bo'lsa-da, haqiqat» degan edilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son, 2020-yil 6-noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son, 2020-yil 30-iyundagi «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6017-son Farmonlarida, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 30-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-4768-son Qarorlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 23-son qarorida hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamlı strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishning ijtimoiy psixologik mexanizmlarini o'rganishga oid masalalar o'zbek psixolog olimlardan B.S.Abdullayeva, Sh.R.Baratov, R.O.Begmatov, M.G.Davletshin, Z.R.Ibodullaev, D.T.Ismatova, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, F.F.Rasulova, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov, Z.S.Elov, U.D.Qodirov, E.G'.G'oziyev va boshqalar ilmiy jihatdan tadqiq etgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.Berkovich, L.I.Bojovich, O.S.Vasilyeva, T.N.Duxina, Z.A.Zimeleva, O.I.Zotova, A.E.Lichko, E.V.Olshanskaya, L.M.Semenyuk, A.M.Sisoyeva, V.A.Tolochek va boshqalar tomonidan o'smirlarda dezadaptatsiyaning namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik jihatlari, nizolarga sabab bo'luvchi omillar kabi masalalarni tadqiq etishgan.

Xorijiy psixolog olimlardan A.X.Buss, G.A.Ball, R.Berron, K.Byutner, Z.Freyd, Z.Konnor, E.Fromm, D.Mayers, R.Plutchik, A.A.Rean, D.Zillmann va boshqalar tomonidan dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishning ijtimoiy psixologik mexanizmlari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq PZ-202005236-raqamli «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2022 yy).

Tadqiqotning maqsadi dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishning ijtimoiy psixologik mexanizmlari bo'yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dezadaptatsiyalashgan o'smirlarning hissiy holatidagi yoshga oid dinamik va gender xususiyatlarni aniqlash va tahlil qilish;

o'smirlardagi dezadaptatsiya holatining namoyon bo'lishining psixologik determinantlarini aniqlashtirish;

nizoli vaziyatlarda xulq-atvor strategiyalarini namoyon bo'lishiga ko'ra dezadaptatsiya holatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash;

dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishning psixologik mexanizmlarini ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlash belgilangan bo'lib, tadqiqotda Buxoro viloyatining 130 nafar hamda Navoiy viloyatidan 110 nafar o'smirlar, jami 240 nafar o'smir respondentlar sifatida jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, anketalash, metodlaridan, shuningdek, C.Rodgers va R.Daymondlar tomonidan ishlab chiqilgan va T.Snegirev tomonidan moslashtirilgan «Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi» metodikasi, K.N.Tomasning «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» testi, R.Kondashning «Ijtimoiy vaziyatga bog'liq bezovtalik darajalarini aniqlash» metodikasi hamda mualliflikda ishlab chiqilgan «Dezadaptatsiyalashgan o'smirlardagi hissiy holatlar diagnostikasi»dan (A.A.Xuseynova, N.R.Axmudov) foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

dezadaptatsiyalashgan o'smirlarning emotsional holatida xavotirlanish, ijtimoiy munosabatlar, muloqotga moyillikni o'g'il bolalarda, o'zini-o'zi nazorat qilish hisining yuqori sinf o'quvchilarida ustuvor xarakterga ega ekanligi tufayli yoshga oid dinamik va gender xususiyatlarni mavjudligi asoslangan;

o'smirlardagi dezadaptatsiya holatining namoyon bo'lishiga ta'siri etuvchi determinant sifatida «o'z-o'zini qabul qilish»ning yuqori darajasi «boshqalarni qabul qilmaslik»ni kuchaytirib, hissiy noqulaylik hamda ichki nizolarni keltirib chiqarganligi tufayli shaxslararo munosabatlarda «hukmronlik»ka intilishning destruktiv shakli ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillangan;

dezadaptatsiyalashgan o'smirlarning nizoli vaziyatlardagi xulq-atvorida hamkorlikka intilish va o'zaro kelishuvchanlikning destruktiv axloq ta'sirida pasayishi ijtimoiy munosabatlarga negativ pozitsiyani shakllanishiga olib kelganligi tufayli «o'zini chetga olish», «bahs-munozara» strategiyalarining ustuvor tarzda namoyon bo'lishi dalillangan;

dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishda maktabdagi o'quv jarayoni, o'z-o'zini baholash, shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq xavotirlanish

darajasini barqarorlashtirish muhimligi tufayli destruktiv hissiy holatlarga korreksion ta'sir etish muhim psixologik mexanizm ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqotda to'plangan natijalarining ilmiy ahamiyati umumta'lim maktablari o'smir o'quvchilari faoliyatida namoyon bo'luvchi dezadaptatsiya holatlarini bartaraf etishga qaratilgan nazariy va metodologik jihatdan yangi ma'lumotlar bilan boyitilganligi va olingan natijalar mazkur tadqiqotning nazariy asoslarini takomillashuviga, o'smirlarning dezadaptatsiya holatlarini yenga olishi hamda maktab amaliyotchi psixologining faoliyatga ilmiy-amaliy yondashuvini ta'minlaydi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, xalq ta'lim muassasalari tizimida ijtimoiy-psixologik xizmatini takomillashtirish o'smir o'quvchilarining faoliyatida dezadaptatsiyani yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilish, o'quv faoliyatida ma'naviy va aqliy-intellektual jarayonlarni rivojlantirishda samara beradi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalardan maktab amaliyotchi psixologlari, xalq ta'limi muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar va ota-onalar keng foydalanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilganligi; xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi; empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi; natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumta'lim maktablari o'smir o'quvchilari faoliyatida namoyon bo'luvchi dezadaptatsiya holatlarini bartaraf etishga qaratilgan nazariy va amaliy jihatdan yangi ma'lumotlar bilan boyitilganligi hamda olingan natijalar mazkur tadqiqotning nazariy asoslarini takomillashuvi, o'smirlarning salbiy hissiy holatlarni yenga olishi maktab amaliyotchi psixologlarining faoliyatiga yangicha ilmiy yondashuvini ta'minlaydi, shuningdek «Ijtimoiy psixologiya», «Etnopsixologiya», «Psixologik maslahat», «Psixokorreksiya» kabi fanlarni ilmiy ma'lumotlar bilan boyitilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqotimizdagi empirik tahlillar o'smir o'quvchilarining ijtimoiy munosabatlarga moslashishi, ularda dezadaptatsiya holatlarini keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilishga o'quv faoliyatida ma'naviy va aqliy-intellektual jarayonlarni rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda uslubiy jihatdan foydalanishga, psixolog mutaxassislarni malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishning ijtimoiy psixologik mexanizmlarini o'rganishga doir olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida:

dezadaptatsiyalashgan o'smirlarning emotsional holatida xavotirlanish, ijtimoiy munosabatlar, muloqotga moyillikni o'g'il bolalarda, o'zini-o'zi nazorat qilish hisining yuqori sinf o'quvchilarida ustuvor xarakterga ega ekanligi tufayli yoshga oid dinamik va gender xususiyatlarni mavjudligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagi PM-112-son buyrug'i bilan «Deviantologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagi PM-112a-son ma'lumotnomasi). Natijada dezadaptatsiyalashgan o'smirlarning hissiy holatidagi yoshga oid dinamik va gender xususiyatlarni aniqlangan va tahlil qilingan;

o'smirlardagi dezadaptatsiya holatining namoyon bo'lishiga ta'siri etuvchi determinant sifatida «o'z-o'zini qabul qilish»ning yuqori darajasi «boshqalarni qabul qilmaslik»ni kuchaytirib, hissiy noqulaylik hamda ichki nizolarni keltirib chiqarganligi tufayli shaxslararo munosabatlarda «hukmronlik»ka intilishning destruktiv shakli ustuvor xarakterga ega ekanligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagi PM-112-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagi PM-112a-son ma'lumotnomasi). Natijada o'smirlardagi dezadaptatsiya holatining namoyon bo'lishining psixologik determinantlarini aniqlashtirilgan;

dezadaptatsiyalashgan o'smirlarning nizoli vaziyatlardagi xulq-atvorida hamkorlikka intilish va o'zaro kelishuvchanlikning destruktiv axloq ta'sirida pasayishi ijtimoiy munosabatlarga negativ pozitsiyani shakllanishiga olib kelganligi tufayli «o'zini chetga olish», «bahs-munozara» strategiyasining ustuvor tarzda namoyon bo'lishiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagi PM-112-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagi PM-112a-son ma'lumotnomasi). Natijada nizoli vaziyatlarda xulq-atvor strategiyalarini namoyon bo'lishiga ko'ra dezadaptatsiya holatlarni keltirib chiqaruvchi omillar aniqlangan;

dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishda maktabdagi o'quv jarayoni, o'z-o'zini baholash, shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq xavotirlanish darajasini barqarorlashtirish muhimligi tufayli destruktiv hissiy holatlarga korreksion ta'sir etish muhim psixologik mexanizm ekanligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagi PM-112-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagi PM-112a-son ma'lumotnomasi). Natijada dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishning psixologik mexanizmlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 6 tasi respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, metodlar, obyekt va predmet ko'rsatilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tatbiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya muammosini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida uzoq va yaqin xorijlik hamda mamlakatimiz olimlarining mavzuga oid ilmiy nazariy qarashlari umumlashtirilgan. Shuningdek, psixologiyaning turli sohalarida dezadaptatsiyani tushunish, uni paydo bo'lish sabablari, uni rehabilitatsiya qilishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, mazkur muammoni o'rganishga bag'ishlangan ko'plab emirik tadqiqotlarning tahlili amalga oshirilgan.

Mazkur yo'nalish bo'yicha tadqiqot ishlarini yurtimiz psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, Sh.R.Baratov, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, Z.T.Nishonova, N.Z.Jumayev, G.A.Bogdalova, R.Toshimov, M.Mamatov, E.M.Muxtorov, N.G'.Kamilova, N.I.Xalilova, N.T.Norqulova, B.M.Umarov, G.Z.Tojiboeva, F.F.Rasulova, G.I.Sattorova, G.Q.To'laganova, D.R.Abdumajidova, X.X.Jabborov, O.S.Qodirov va boshqalar tomonidan ilmiy jihatdan o'smirlik yoshidagi emotsional holatlar, o'smirlarning individual psixologik xususiyatlari, ijtimoiy adabtatsiya jarayonlari hamda o'smirning otanasi bilan bo'ladigan munosabatlarini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.S.Vigotskiy, B.G.Ananyev, A.N.Leontyev, A.D.Glotoshkin, N.V.Samoukina, M.G.Kazakina, G.G.Fyodorov, S.A.Belicheva, B.F.Bashirova, N.Y.Sinyagina, A.I.Titarenko, R.V.Ovcharova, L.M.Semenyuk, I.V.Vachkov, R.Kochyuna, A.V.Boyeva, T.V.Neshepurenko, N.N.Poroxnova, S.L.Solovyova kabilar shaxsni ijtimoiylashuv jarayonlari, o'smirlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish, salbiy xulq-atvorni korreksiya qilish bilan bog'liq masalalar tadqiq qilingan.

Dissertatsiyani **«Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishning empirik asoslari»** deb nomlangan ikkinchi bobida dezadaptatsiyalashgan o'smirlarning jamiyatga moslashish jarayonlarini o'rganish bo'yicha bir qator metodikalardan foydalanib, tegishli empirik ma'lumotlarni qo'lga kiritdik. Mazkur muammoni tadqiq etish bo'yicha tadqiqot bosqichlari belgilandi. Birinchi bosqichda muammoning metodologik asoslari va

metodikalarning psixologik tavsifi keng yoritildi, tadqiqotimiz murakkab, shuningdek dolzarb muammoga bag'ishlanganligi uchun uning bosqichlari, metodologik tamoyillariga asoslanib tadqiqot metodikalariga qo'yilgan talablar asosida o'tkazildi.

Dastlab ilmiy rahbarimiz bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan «Dezadaptatsiyalashgan o'smirlardagi hissiy holatlar diagnostikasi»ga bag'ishlangan ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi orqali olingan natijalar tahliliga o'tamiz. Dastlab dezadaptatsiyalashgan o'smirlarning gender tahlillarini amalga oshirdik.

1-jadval.

«Dezadaptatsiyalashgan o'smirlardagi hissiy holatlar diagnostikasi» ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi (n=240)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar	
	Yigitlar n=130	Qizlar n=110	t	p
Xavotirlanish	7,4	5,9	-2,78	0,005
Ijtimoiy munosabatlar	8,1	6,2	-1,90	0,005
Muloqotga moyillik	7,9	6,1	-2,57	0,005
O'zini nazorat qilish	7,1	6,8	1,09	0,024

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, «xavotirlanish» ($t=-2,78$; $p\leq 0,005$), «ijtimoiy munosabatlar», ($t=-1,90$; $p\leq 0,005$), «muloqotga moyillik» ($t=-2,57$; $p\leq 0,005$) shkalalarning natijalarida ahamiyatli statistik farqlar aniqlangan. «O'zini nazorat qilish» ($t=1,09$; $p\leq 0,005$) omilida esa ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. «Xavotirlanish» omili yigitlarga yuqori natijani qayd etdi. Bizningcha buning asosiy sababi, yigitlarda o'z kelajagi haqida qayg'urishi, o'zini imkoniyatlarini yetarlicha namoyish qilishdan qo'rqishi, qiziqishlarining cheklanganligi bilan o'ziga yo'naltirilganlik kabi tavsiflanadi.

Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda ijtimoiy munosabatlar ya'ni ijtimoiy hamkorlik jarayonida iliq hissiy munosabatlarni o'rnatishga intilish, shaxslar bilan birgalikda faoliyat olib borishi, hamkorlikda ishlashi, shaxslararo munosabatlarda birlashish xususiyatlari yigitlarda ustunli qilishi kuzatildi. Demak, shaxsning o'ziga beradigan bahosiga integrativ tarzda kuchaytirganligi o'g'il bolalarda ijtimoiy munosabatlarga kirishimlik, qiz bolalarda esa shaxslararo munosabatlardan «qochish» tendensiyasi ustuvor ekanligini aniqlandi. Mazkur holat esa ularni ijtimoiy munosabatlarga kirishishida muhim omil sanaladi.

Keyingi «muloqotga moyillik» omilida ham ma'lum bir statistik farqlar kuzatildi. Albatta, muloqot jarayoni shaxslararo munosabatlar uchun eng muhim omil hisoblanadi. Buning sababi muloqot - hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayonidir. Ijtimoiy moslashuv - individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi hisoblanadi. Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishda mazkur omilning o'zni benihoya beqiyosdir. Chunki, shaxslar bilan adekvat muloqotga kirisha olish bu individning ijtimoiy muhitga moslashishida ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga qabul qilish, faollik ko'rsatish natijasida shaxslar bilan muloqotga kirib borish jarayonidir.

«Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlardagi hissiy holatlar diagnostikasi» ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi (n=240)

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)		Farqlar	
	5-sinf n=140	9-sinf n=100	t	p
Xavotirlanish	6,1	7,3	-3,17	0,005
Ijtimoiy munosabatlar	6,3	7,9	-2,83	0,005
Muloqotga moyillik	6,2	6,8	-0,57	0,014
O‘zini nazorat qilish	5,8	8,2	-3,09	0,005

Endi dezadaptatsiyalashgan o‘smirlardagi hissiy holatlar diagnostikasiga bag‘ishlangan ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi orqali olingan sinflar kesimidagi tahlillarni ko‘rib chiqamiz. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, “xavotirlanish” ($t=-3,17$; $p\leq 0,005$), “ijtimoiy munosabatlar”, ($t=-2,83$; $p\leq 0,005$), “o‘zini nazorat qilish” ($t=-3,09$; $p\leq 0,005$) shkalalarda ahamiyatli statistik farqlar kuzatildi. Yosh davrlari kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, «muloqotga moyillik» omilida sezilarli farqlar kuzatilmadi ($t=-0,57$; $p\leq 0,014$).

Maktablarning 9-sinf o‘quvchilarida «xavotirlanish» omili yuqori natijani ko‘rsatdi. Ma’lumki, xavotirlanishning shaxsiy yoki vaziyatga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Agar shaxsda xavotirlanish omili yuqori bo‘lsa, shaxslararo munosabatlarda tortinchoqlik, o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi, shu bilan birgalikda o‘zining mavjud imkoniyatlarini namoyon qila olmaslik kuzatildi.

Navbatdagi «ijtimoiy munosabatlar» omili ham yuqori sinf o‘quvchilarida yuqori natijani ko‘rsatdi. Bunga sabab, ularning katta hayotga kirishishiga tayyorgarligi, yangi do‘stlar orttirish ehtiyoji hamda jamiyatda ma’lum bir ijtimoiy statusga ya’ni o‘z o‘rnini topish bilan izohlanadi. Demak, o‘smirlar yosh jihatdan ulg‘aygani sari ularni jamiyatga moslashish jarayonlari ham iziga tushib ketishi mumkin ekan.

«O‘zini nazorat qilish» omili ham yuqori sinf o‘smirlarida ustun ekanligi aniqlandi. Bundan ko‘rinadiki, o‘zini o‘zi nazorat qilishda moslashuvchanlikning shakllanish darajasi, ya’ni tashqi va ichki shart-sharoitlar o‘zgarganda o‘z-o‘zini boshqarish tizimini qayta qurishi, tuzatishlar kiritish qobiliyatining ortishi, o‘z navbatida, shaxsning kelgusida amalga oshiriladigan ishlar rejasini tuzishi, aniq yo‘nalishlarni belgilash, natijalarni baholashi, mustaqil faoliyatni yo‘lga qo‘ya olishi, o‘zini o‘zi boshqarish darajalarini yuqori sinf o‘smirlarida yuqori ekanligi qayd etildi.

Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlarni jamiyatga moslashish jarayonida o‘zini nazorat qilish, ijtimoiy munosabatlari, hissiy-emotsional sohalarni korreksiyalash muhim hisoblanadi. Bundan tashqari o‘smirlardagi irodaviy sifatlari, motivatsiyaning ham shakllanganlik darajasini ham inobatga olish lozim. Xorij olimlari tomonidan irodani o‘rganish jarayonida motivatsiyani tadqiq etish ehtiyoji kuzatilgan. Psixologlar tomonidan yuqoridagi muammoni o‘rganish mobaynida bir muammo, ya’ni anglangan maqsadga muvofiq xulq-atvor mexanizmlari, o‘rganilgan. Taniqli olim K.N.Kornilovning ta’kidlashicha, irodaviy harakatlar negizida doimo motiv yotadi. Yana bir mashhur psixolog N.N.Lange esa o‘zining

tadqiqotlarida istak, mayl, xohishning iroda va irodaviy aktlar bilan bog‘liqligi muammosini o‘rgangan. Olimning fikricha xoxish – bu irodaviy faoliyatdir. Shuning uchun yuqoridagi omillarni tahlil qilish asosida dezadaptatsiyalashgan o‘smirlarni reabilitatsiya qilish maqsadga muvofiq deb topildi.

Tadqiqotimizning navbatdagi usuli hisoblangan «Ijtimoiy-psixologik moslashuv darajalari» usuli orqali olingan dastlabki tahlillar natijalariga o‘tamiz. Mazkur metodikani biz dezadaptatsiyalashgan o‘smirlar misolida tahlil qildik. Biz dezadaptatsiyalashgan o‘smirlardagi moslashuvchanlik darajalarini yanada aniqroq o‘rganish maqsadida ushbu metodikani dezadaptatsiyalashgan o‘smirlar hamda normal o‘smirlar misolida tahlil qildik.

3-jadval.

«Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik metodikasi» bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=240)

Shkalalar	Obyektlar	M	σ	t
Moslashuv	Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlar n=110	104,70	22,44	-4,428*
	O‘smirlar n=130	125,28	26,86	
O‘zini yoqtirish	Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlar n=110	34,56	8,68	-2,934**
	O‘smirlar n=130	40,22	9,96	
Boshqalarni qabul qilish	Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlar n=110	18,96	5,57	-3,767***
	O‘smirlar n=130	23,32	6,22	
Hissiy qulaylik	Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlar n=110	18,20	4,84	-2,701*
	O‘smirlar n=130	21,36	6,97	
Ichki nazorat	Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlar n=110	40,42	12,58	-3,704***
	O‘smirlar n=130	48,52	11,76	
Hukmronlik	Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlar n=110	8,36	2,83	-1,119
	O‘smirlar n=130	9,22	4,33	
Eskapizm	Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlar n=110	12,68	4,47	-0,760
	O‘smirlar n=130	13,38	4,94	

Izoh: *p<0,05; ** p<0,01; ***p<0,001.

Ijtimoiylashuvdan farqli ravishda moslashuv jarayonini amalga oshirishda odatdagi shart sharoitlarining o‘zgarishi, ijtimoiy o‘zaro ta’sir muammolarining yuzaga kelishi odatiy ahamiyat bilan cheklanmaydigan hal qilishning faoliyat yo‘llari sharoitida rivojlanadi. Uning mohiyati amal qilishning obyektiv sharoitlariga ularni muvofiqlashtirish maqsadida shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy rollar, qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlarning o‘zaro ta’siri transformatsiyasi (o‘zgarishi) uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan xulq-atvorning (munosabat, bilim,

ishonch) yangi ijtimoiy-psixologik regulyatorlari shakllanishidan iborat. Tadqiq etilayotgan muammoga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlarda moslashuv ijtimoiylashuv jarayoni mexanizmlaridan biri, degan fikrlar mavjud. Ushbu metodika natijalariga ko'ra, o'smirlar moslashuv darajasi bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymat 125,28 ni, dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda esa 104,70 ni tashkil etdi ($p < 0,05$). Dezadaptatsiyalashgan o'smirlar turli xil ruhiy zo'riqishlar natijasida ularning moslashuvi past darajada ekanligini ko'rsatgan.

Metodikaning «o'zini yoqtirish» shkalasi bo'yicha o'smirlarda o'rtacha arifmetik qiymat 40,22 ni, dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda esa 34,56 ni tashkil etdi ($p < 0,01$). Mazkur ko'rsatkichlar orqali ham dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi, o'zini o'zi baholash tizimida pasayishni kuzatishimiz mumkin.

«Hissiy qulaylik» shkalasi bo'yicha yuqoridagi natijalarga duch keldik: O'smirlar o'rtacha arifmetik qiymat 21,36 ni, bunday holat kuzatilmaydigan o'smirlarda esa 18,20 ni ($t = -2,701$, $p < 0,05$) tashkil etdi. «Ichki nazorat» shkalasida o'smirlar o'rtacha arifmetik qiymat 48,52 ga, dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda 40,42 ga ($t = -3,704$, $p < 0,001$) tengligi ma'lum bo'ldi. Yuqorida ta'kidlanganidek, moslashuv jarayoni dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda o'ziga xos murakkabliklar bilan kechishi mazkur natijalarda ham o'z aksini topgan. Dezadaptatsiyalashgan o'smirlar hissiy holatlarda noqulaylik, bezovtalanish yuqori darajada ekanligi namoyon bo'ldi. «Ichki nazorat» ko'rsatkichlaridagi keskin tafovutlar o'smirlarning jamiyatga moslashishi jarayonida ko'p xollarda tashqaridagi shaxslarga yo'nalganligi, boshqalar yordamiga tayanganligidan dalolat beradi.

Keyingi «hukmronlikka intilish» shkalasi bo'yicha dezadaptatsiyalashgan o'smirlar o'rtacha arifmetik qiymat 8,36 ni va o'smirlarda 9,22 ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar ikkala guruh respondentlari oilada ijrochi rolini bajarayotganliklarini bildiradi. «Eskapizm (muammolardan qochish)» shkalasi bo'yicha dezadaptatsiyalashgan o'smirlar o'rtacha arifmetik qiymat 12,68 ni va o'smirlarda 13,38 ni tashkil etdi, bu holat o'smirlarda muammolardan qochish tendensiyasi ustunlik qilishidan darak beradi.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayoni xususiyatlari asosan ijtimoiylashuv jarayonining turli jihatlari bilan belgilanadi: «Insoniyatning insoniylashuvi» tajribasi, aniq, ijtimoiy va etnik jamoaning shakllanish tarixi bilan 12-15 yoshga yetgan zamonaviy o'smir muayyan jinsga mansub kishi, muayyan tarzda tashkil topgan jamiyat a'zosi, aniq etnos vakili sifatida shakllangan. U ijtimoiy me'yor va talablarni o'zlashtirgan, jamiyatda mos rolni bajaradi. Uning shaxsi, strukturasi asosan shakllangan hisoblanadi va ijtimoiylashuv jarayoni tajribasini o'zida aks ettiradi.

Yangi sharoitlarda moslashuv jarayonining muvaffaqiyatliligi bu tajribani turli darajadagi shaxs strukturalari umuminsoniy, ijtimoiy-spesifik va individual ahamiyati bilan birga mos keluvchi xulq-atvor hamda faoliyatning yangi dasturlari regulyatorlari qurish uchun foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi.

Tadqiqotimiz maqsadiga mos ravishda tanlangan K.Tomasning «Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarini aniqlash» so'rovnomasi natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

«Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalari» ko'rsatkichlari (n=240)

Shkalalar	Obyektlar	M	σ	t
Raqobat	Dezadaptatsiyalashgan o'smirlar n=110	5,16	2,06	2,912*
	O'smirlar n=130	3,96	2,56	
Hamkorlik	Dezadaptatsiyalashgan o'smirlar n=110	5,56	1,78	2,682*
	O'smirlar n=130	6,52	1,64	
Kelishuv	Dezadaptatsiyalashgan o'smirlar n=110	5,36	1,53	-3,009**
	O'smirlar n=130	6,44	1,73	
Vaziyatdan qochish	Dezadaptatsiyalashgan o'smirlar n=110	6,98	1,29	-0,394
	O'smirlar n=130	5,51	1,80	
Moslashuv	Dezadaptatsiyalashgan o'smirlar n=110	6,38	1,55	-2,903*
	O'smirlar n=130	7,34	1,97	

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$; *** $p < 0,001$

Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, dezadaptatsiyalashgan o'smirlar nizoli vaziyatlarga tushganda dastlab «vaziyatdan qochish» uslubini (6,98) afzal ko'rishar ekan, o'smirlarda mazkur uslub 5,51 ga teng bo'lib, ikkinchi o'rinni egallagan. Fikrimizcha, bu tabiiy hol, chunki, bunday o'smirlar, avvalo, nizoli vaziyatlardan iloji boricha qochishga harakat qiladi. Ularga to'liq ma'lum bo'lmagan muhit va jamiyat a'zolarining fe'l-atvori sababli, ko'pincha, ular nizoli vaziyatlardan iloji boricha qochishni ma'qul ko'radi. Doimiy ravishda ijtimoiy munosabatlardan o'zini chetga olish o'z navbatida o'smirlarni ijtimoiylashuv jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

O'smirlarda «hamkorlik» uslubi 6,52 qiymatni tashkil etgan bo'lsa, dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda bu ko'rsatkich 5,56 ga teng ekanligi qayd etildi. Demak, dezadaptatsiyalashgan o'smirlar hamkorlik yo'nalishiga intilishi nisbatan past darajada bo'lishi aniqlandi. Bu esa ulardagi jamiyatga moslashish, ijtimoiy munosabatlarda kompromissga kirishishida ma'lum bir muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda kelishish va raqobatga nisbatan intilish susayib, asosan hamkorlik qilishga intilish kuchayib boradi. Buning sababini ular ko'pincha murakkab vaziyatlardan chiqishning eng ma'qul yo'li hamkorlik ekanligini anglaganliklari bilan izohlashimiz mumkin. Jadvaldagi ma'lumotlardan ma'lum bo'ladi, dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda «moslashuv» uslubi uchinchi o'rinni egallagan bo'lsa (5,56), o'smirlarda esa birinchi o'rinni egalladi (7,34). O'smirlarda hamkorlik va raqobatga nisbatan moslashishga intilish kuchli ekanligini kuzatamiz. Bu hol o'smirlarda ularning kirishuvchanligi va shaxslararo munosabatlarda «til topishishga» intilishi kuchli ekanligini bildiradi. Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda esa jamiyat a'zolarining moslashuvida ma'lum bir kamchiliklar mavjudligini anglatadi.

Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda «kelishuv» uslubi 5,36 tashkil etgan bo'lsa, o'smirlarda esa mazkur omil 6,44 qiymatni ko'rsatdi. Albatta jamiyat

a'zolari bilan kelishuv har bir shaxs uchun juda muhim jihat sanaladi. Buning sababi, shaxs ijtimoiy muhitning mahsuli hisoblanadi. Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda ijtimoiylashuv jarayonida kirishuvchanlilik, jamiyat manfaatlarini o'zining manfaatlaridan ustun qo'yish darajalari pastroq darajada shakllanganligi aniqlandi.

Shunday qilib, dezadaptatsiyalashgan o'smirlarning jamiyatga moslashuvida xulq-atvorning hamkorlik strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. K.Tomas fikricha, nizodan qochishga intilishda tomonlardan hech biri muvaffaqiyatga erishmaydi, raqobat, moslashuv, kelishuv uslublarida esa tomonlardan biri muvaffaqiyatga erishadi yoki har ikki tomon ham yutqazadi, chunki kelishuv va yon bosish strategiyasini qo'llaydi. Faqat hamkorlik vaziyatidagina har ikkala tomon munosabatlari muvofiqlashadi. Ana shu holatda o'smirlar hamkorlik uslubi dezadaptatsiyalashgan o'smirlarga nisbatan ishonchli darajada yuqori ekanligini kuzatildi ($t=2,682$, $p<0,05$). O'smirlarga esa xulq-atvor strategiyasining kelishuv va moslashuv turlari dezadaptatsiyalashgan o'smirlar ko'rsatkichlariga qaraganda ishonchli darajada ($p<0,05$) yuqoriligini ulardagi moslashuvda ko'proq passiv strategiyalarning ustunligi bilan tushuntiriladi. Binobarin, har ikkala guruh respondentlarida ham oilaviy munosabatlarda ehtiyotkorlik bilan harakat qilish, muomala madaniyati va xulq-atvorini nazorat qilishi ijtimoiy rol kutilmalarga javoban oiladagi tartib-qoidalarini o'zlashtirish va ularga moslashish, uy-ro'zg'or ishlarini sidqidildan bajarish kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, ushbu metodning qo'llanilishi tadqiqot maqsadini amalga oshirishga xizmat qiluvchi o'smirlarning jamiyatga moslashishdagi emotsional holatlar dinamikasini tadqiq qilish hamda shu ko'rsatkichlar natijasida salbiy emotsional holatlarni keltirib chiqaradigan omillarning o'smirlik davri uchun xarakterli jihatlarini o'rganish imkonini beradi. Mazkur metodika natijalarini biz dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni sinflar kesimida tahlil qildik (5-jadvalga qarang).

5-jadval.

«Ijtimoiy vaziyatga bog'liq bezovtalik darajalarini aniqlash» metodikasi orqali olingan dastlabki natijalar tahlili (n=240)

Shkalalar nomi	O'rtacha(M)		Farqlar	
	5-sinf n=140	9-sinf n=100	t	p
Maktabdagi o'quv jarayoni	10,2	6,9	-3,53	0,005
O'zini o'zi baholash	8,6	6,7	-2,04	0,005
Shaxslararo munosabat	6,1	8,2	-1,99	0,005

Izoh: *- $p<0,05$, **- $p<0,01$, ***- $p<0,001$.

Tadqiqotimizda qo'llanilgan «Kondash mezoni» talablari asosida modifikasiya qilingan holda qo'llanilgan so'rovnoma natijalari tahlilini amalga oshirdik. Olingan tahlillarga asoslanib, dezadaptatsiyalashgan o'smirlarning ijtimoiy vaziyatlarga bog'liq shaxsiy bezovtalik darajasining namoyon bo'lishiga doir empirik ma'lumotlarni qo'lga kiritildi. Zero, ushbu natijalarning tahlili

dezadaptatsiyalashgan o'smirlardagi ijtimoiy jarayonlarga moslashuvi to'g'risidagi tasavvurlarining rivojlanganlik darajasiga qarab o'smirlarning jamiyatga moslashishining ijtimoiy-psixologik omillari aniqlandi. Mazkur tahlillarga asoslanib, dezadaptatsiyalashgan o'smirlarning ijtimoiy munosabatlardagi salbiy holatlarni korreksiyalash uchun tegishli ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shulardan kelib chiqib, olingan statistik ma'lumotlarga asoslangan holda 5-9-sinflarda tahsil olayotgan dezadaptatsiyalashgan o'smirlar orasida, ya'ni o'smirlik davrining dastlabki va so'nggi bosqichlarida turli ko'rinishdagi bezovtalik darajalarini kuzatishimiz mumkin.

R.Kondash uslubining dastlabki «maktabdagi o'quv jarayoni» omili, ya'ni maktab hayoti bilan bog'liq shaxsiy bezovtalik mezoni bo'yicha 5-sinflarda eng yuqori daraja 10,2 ballni tashkil etgan bo'lsa, aynan ushbu ko'rsatkich bo'yicha 9-sinflarida esa 6,9 ballni tashkil etdi. Ushbu empirik ma'lumotlardan shuning guvohi bo'lishimiz mumkinki, dezadaptatsiyalashgan o'smirlarning yoshi ulg'aygani sari ularning maktab hayoti bilan bog'liq bezovtalik darajasi nisbatan kamayishi va belgilangan me'yordan yuqori ko'rsatkichlarga nisbatan oshib borishi kuzatildi. Buning asosiy omillaridan biri sifatida o'smirlarning maktab hayotiga moslashish darajasi me'yorida ekanligini kuzatishimiz mumkin. Chunki, bola maktab hayotiga dastlab kichik maktab yoshidanoq moslashishni boshlaydi. O'smirlik davrining dastlabki bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-psixologik va fiziologik o'zgarishlar o'quv faoliyatiga bevosita ta'sir qilishi aniqlandi. O'smirlik davrining so'nggi davrlariga kelib, o'quv faoliyatida ijtimoiy-psixologik o'zgarishlar natijasida maktab hayotiga moslashadi. Xuddi mana shunday holatlar 5-sinfidagi o'smirlarda 9-sinflarga nisbatan bezovtalik darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Dezadaptatsiyalashgan o'smirlardagi salbiy hissiy holatlardagi differentsiatlangan farqlariga ko'ra, maktab jamoasi va ta'lim-tarbiya bilan bog'liq xavotirlanish jismoniy, shaxslararo munosabatlarda tan olinish istagini ifodalovchi bezovtalik agressiv reaksiyalari mavjudligi aniqlandi. Mazkur holatlar esa ularni jamiyat normalariga moslashuvida ma'lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi kuzatildi.

Metodimizning keyingi omili «o'zini o'zi baholash» bo'lib, ushbu omil bo'yicha 5-sinf o'smirlarda eng yuqori natija 8,6 ballni, 9-sinflarda esa 6,7 ballni tashkil etdi. Demak, o'smirlik davrining so'nggi bosqichlariga kelib, o'smirlar o'zini o'zi adekvat baholashi bilan ijtimoiy vaziyatlarga bog'liq bezovtalik darajasi pasayishini ko'rishimiz mumkin. O'smirlik juda murakkab davr bo'lib, bu davrning so'nggi bosqichlariga kelib, o'ziga xos ijtimoiy-psixologik munosabatlar yuzaga keladi.

Tadqiqotimizda qo'llanilgan metodning navbatdagi omili «shaxslararo munosabat» deb nomlanib, bu omil bo'yicha natijalar tahlilini amalga oshiradigan bo'lsak, bunda 5-sinflarda eng yuqori natija 6,1 ballni, 9-sinf o'smirlarida esa 8,2 ballni tashkil etdi. Olib borilgan tahlillarimizga asoslangan holda o'smirlik davrida maktabning yuqori sinfiga o'tgan sari shaxslararo munosabatlarga kirishishda bezovtalik darajasi avvalgi davrga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlandi. Aksariyat hollarda o'smirlarning bezovtaligi nafaqat kattalar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida, balki o'zining oila a'zolari bilan bo'ladigan munosabatlarida ham

yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘smirlarning shaxslararo munosabatlarida «yuqori» darajadagi bezovtalikning namoyon bo‘lishi ularning o‘ziga taalluqli bo‘lgan guruh a‘zolarining ta’siri, shuningdek, inqiroz davriga xos bo‘lgan davrni boshdan kechirayotganligi ta’siri natijasida paydo bo‘ladi (5-jadval).

Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlardagi bunday bezovtalik dinamikasini biz qo‘shimcha ravishda metodikalarni qo‘llash orqali aniqladik. Har bir o‘quvchi o‘smirlikning dastlabki davrida ijtimoiy munosabatlarga moslashish to‘g‘risidagi tasavvurlariga yetarlicha ega emasligini kuzatishimiz mumkin. O‘smirlik davrining so‘nggi yillariga kelib esa maktabdagi o‘quv jarayoni ularni avvalgi yillarga nisbatan ko‘proq xavotirlanishga olib kelishi va o‘rnatilgan ijtimoiy-psixologik me‘yorlarga nisbatan asabiylik bilan javob qaytarishiga guvoh bo‘ldik.

Umuman olganda, tadqiqotimizda qo‘llanilgan «Kondash» metodikasining talablari asosida tahlil qilingan ijtimoiy vaziyatga bog‘liq bezovtalik darajasi maktabdagi bevosita o‘quv jarayoni, o‘zini o‘zi adekvat baholashi va shaxslararo munosabatlariga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bunday holatlar o‘smirlarning oila a‘zolari bilan bo‘ladigan munosabatlariga bevosita o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha omillar ijtimoiy vaziyatga bog‘liq bezovtalik darajalarini tadqiq etish va shu asosida psixologik korreksion dasturlarni ishlab chiqishda shuningdek, o‘smirlarning jamiyatga moslashish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz davomida dezadaptatsiyalashgan o‘smirlarga ta’sir etuvchi bir qancha omillar tahlil qilindi. Shulardan biri ijtimoiy psixologik moslashuvchanlik mezonlari sanaladi. Endi mazkur metodika bo‘yicha olingan interkorrelyatsion natijalar tahlillariga o‘tamiz.

6-jadval.

«Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik metodikasi» bo‘yicha olingan natijalarning korrelyatsion aloqadorlik ko‘rsatkichlari (n=240)

Mezonlar	Moslashuvchanlik	O‘zini yoqtirish	Boshqalarni qabul qilish	Hissiy qulaylik	Ichki nazorat	Hukmronlik	Eska-pizm
Moslashuvchanlik	1	0,478*	0,399*	0,507*	0,640*	0,526**	
O‘zini yoqtirish		1	0,198	0,407*	0,470*	0,399*	
Boshqalarni qabul qilish			1	0,408*	0,037	-0,053	
Hissiy qulaylik				1	0,629	-0,029	
Ichki nazorat					1	0,253	
Hukmronlik						1	
Eskapizm							1

Izoh: $p < 0,005$; * $p < 0,001$ **.

Endi dezadaptatsiyalashgan o‘smirlarni xulq-atvoriga ta’sir etuvchi omillar tahliliga o‘tamiz. Dastlab, «Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlardagi hissiy holatlar diagnostikasi ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi» hamda «Ijtimoiy vaziyatga

